

SOLIQ XAVFLARINI BOSHGARISH KONSEPSIYASI VA RISKKA ASOSLANGAN SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Elbayeva Mukaddas Rashidovna

TAQU PhD, dotsent

E-mail: elbaevamugaddas84@gmail.com

ORCID: 0009-0007-5515-9384

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish sharoitida soliq xavflarini boshqarish konsepsiyasi va riskka asoslangan yondashuvning nazariy-uslubiy poydevori hamda O'zbekiston Respublikasi amaliyotidagi tatbiqi tadqiq etiladi. Tadqiqotda soliq xavfning iqtisodiy mohiyati, uni klassifikatsiyalash hamda segmentatsiyalash mezonlari, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tavsiyalari asosida shakllangan risk-orientatsiyalashgan model tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston soliq ma'muriyatchiligida o'tkazilgan so'nggi islohotlar, "Soliq xavfini kompleks boshqarish" avtomatlashtirilgan tizimi faoliyati, xavf koridorlari (Yashil, Sariq, Qizil) va statistik ko'rsatkichlar atroflicha yoritilib, fiskal samaradorlikni hamda ixtiyoriy soliq intizomini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: *Soliq xavfi, riskka asoslangan ma'muriyatchilik, soliq komplayensi, OECD modeli, segmentatsiya, soliq nazorati, fiskal samaradorlik, QQS uzilishi, raqamlashtirish.*

Abstrakt

This scientific article will study the concept of tax risk management and the theoretical and methodological foundation of the risk-based approach and the application in the practice of the Republic of Uzbekistan in the conditions of reform of modern tax administration. The study analyzes the economic essence of tax risk, its classification and segmentation criteria, and a risk-oriented model based on the recommendations of the Organization for Economic Cooperation and Development (OECD). Scientific and practical proposals to improve fiscal efficiency and voluntary tax discipline have also been put forward, including the latest reforms carried out in the Tax Administration of Uzbekistan, the activities of the automated system "comprehensive management of tax risk", risk corridors (green, yellow, red) and statistical indicators.

Keywords: *Tax Risk, Risk-Based administration, tax complement, OECD Model, segmentation, tax control, fiscal efficiency, VAT interruption, digitization.*

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat fiskal barqarorligini ta'minlash, biznes subyektlari uchun teng raqobat muhitini yaratish hamda soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish eng muhim strategik vazifalardan biridir. An'anaviy soliq ma'muriyatchiligi asosan yoppasiga yoki rejalashtirilgan soliq tekshiruvlarini o'tkazishga tayanib kelgan. Biroq bu yondashuv bir qator jiddiy kamchiliklarga ega: bir tomondan, soliq organlarining cheklangan resurslari samarasiz sarflanadi, ikkinchi tomondan, halol faoliyat yurituvchi biznes subyektlariga ortiqcha ma'muriy va moliyaviy yuk yuklanadi.

Raqamli iqtisodiyot transformatsiyasi hamda Big Data texnologiyalarining rivojlanishi sharoitida soliq ma'muriyatchiligi konsepsiyasi tubdan o'zgarib, riskka asoslangan soliq ma'muriyatchiligi yetakchi o'ringa chiqdi. Ushbu yondashuvning tub mohiyati — barcha soliq to'lovchilarni bir xil darajada nazorat qilishdan voz kechib, davlat nazorati resurslarini soliq qonunchiligini buzish xavfi yuqori bo'lgan obyektlarga to'plash va halol soliq to'lovchilar uchun ma'muriy g'ovlarni maksimal darajada kamaytirishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Soliq xavflarini boshqarish nazariyasi xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ko'plab ilmiy asarlarida o'rganilgan. Xususan, risk-orientlangan soliq nazorati kontsepsiyasi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan "Compliance Risk Management" modelida o'z aksini topgan bo'lib, unda soliq to'lovchilarning xavf darajasiga qarab differensiallashtirilgan yondashuv qo'llash tavsiya etiladi.

Soliq xavfining paydo bo'lishi va soliq to'lovchilarning xulq-atvorini ilmiy jihatdan asoslab bergan dastlabki klassik model M. Allingham va A. Sandmo tomonidan ishlab chiqilgan. Ularning "Income tax evasion: A theoretical analysis" nomli ishida soliq to'lovchi ratsional subyekt sifatida qaralib, soliqdan bo'yin tovlash qarori tekshiruv o'tkazilish ehtimoli hamda kutilayotgan jarima miqdoriga bog'liq ekanligi ko'rsatib berilgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan J. Alm, J. Slemrod kabi olimlar soliqdan bo'yin tovlash xulq-atvorini iqtisodiy-matematik modellashtirish orqali tahlil qilib, soliq to'lovchining xavf-imkoniyat nisbatiga asoslangan qaror qabul qilish jarayonini o'rgangan. Ularning ishlarida soliq nazorati ehtimoli va jarima miqdorining soliq intizomiga ta'siri ko'rsatib berilgan.

O'zbekistonda soliq tizimi va soliqqa tortish mexanizmlarining umumiy nazariy-amaliy asoslarini A.Vahobov va A.Jo'rayevlar tadqiq etib, soliq bazasini kengaytirish va ma'muriyatchilik samaradorligini oshirish masalalariga e'tibor qaratganlar.

R. Yusupov raqamli iqtisodiyot sharoitida riskka asoslangan soliq nazoratini joriy etish, avtomatlashtirilgan risk-analitika platformalarining samaradorligini baholash va

O'zbekistonda QQS zanjiridagi uzilishlarni aniqlash mexanizmlarini atroflicha tahlil etgan.

D. G'ozibekov va Sh. Toshmatovlar o'z monografiyalarida soliq nazoratini takomillashtirish, soliq stavkalarini maqbullashtirish va soliq to'lovchilar hamda soliq organlari o'rtasidagi munosabatlarni hamkorlik ruhiga o'tkazish masalalarini ilmiy tahlil qilganlar.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda soliq xavflarini boshqarish konsepsiyasining nazariy-uslubiy asoslarini o'rganish va O'zbekiston soliq ma'muriyatchiligidagi amaliy samaradorligini baholash uchun sifat va miqdoriy tahlil usullarining majmuasidan foydalanildi. OECD va IMF kabi xalqaro tashkilotlarning riskka asoslangan ma'muriyatchilik standartlari hamda rivojlangan mamlakatlar tajribasi O'zbekiston amaliyoti bilan qiyosiy tahlil qilindi. Soliq to'lovchilarning xulq-atvori va komplayens nazariyalari asosida soliq xavfini segmentatsiyalash mezonlarining nazariy mantiqiy zanjiri shakllantirildi.

Tahlil va natijalar

Soliq tizimi har qanday mamlakatning moliyaviy va iqtisodiy tizimining asosiy tarkibiy qismi sifatida davlat xarajatlarini moliyalashtirish va iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning hal qiluvchi mexanizmi hisoblanadi.

Soliq xavfi – bu soliq munosabatlarida davlat va soliq to'lovchilar o'rtasida mavjud axborot asimmetriyasi, qonunchilikdagi noaniqliqlar, ma'muriy tizimdagi zaifliklar, iqtisodiy beqarorlik va boshqa omillar natijasida vujudga keladigan, bir tomondan davlat byudjetiga tushadigan soliq daromadlarining belgilangan miqdordan salbiy og'ishini, ikkinchi tomondan esa soliq to'lovchilarga nisbatan qo'shimcha soliq yukining qo'yilishi yoki ularning qonuniy huquqlarining buzilishi ehtimolini ifodalovchi ob'ektiv-subyektiv iqtisodiy kategoriya.

Nazariy jihatdan, soliq xavflarini boshqarish konsepsiyasi uchta fundamental nazariy yondashuvga tayanadi. Birinchisi, iqtisodiy xulq-atvor va ratsional tanlov nazariyasi bo'lib, unga ko'ra soliq to'lovchi soliq majburiyatlarini bajarmaslikdan olinadigan iqtisodiy manfaatni aniqlanish ehtimoli va kutilayotgan moliyaviy sanksiyalar bilan taqqoslagan holda qaror qabul qiladi. Ikkinchisi, komplayens nazariyasi bo'lib, soliq to'lovchilarning qonunchilikka rioya etish darajasi nafaqat jazolash mexanizmlariga, balki soliq tizimiga bo'lgan ishonch, ijtimoiy me'yorlar, ma'muriy tartib-taomillarning soddaligi va soliq xizmatlari sifatiga ham bog'liqligini asoslaydi. Uchinchisi, korporativ xavflarni boshqarish yondashuvi bo'lib, u xavflarni identifikatsiyalash, baholash, ularga nisbatan tegishli javob choralarini belgilash va natijalarni doimiy monitoring qilishdan iborat tizimli hamda takrorlanuvchi boshqaruv sikliga asoslanadi. Mazkur nazariy yondashuvlarning uyg'unligi soliq xavflarini nafaqat nazorat va jazolash, balki profilaktika, komplayens va riskka asoslangan boshqaruv tamoyillari asosida tartibga solish imkonini beradi.

Xalqaro amaliyotda, xususan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tavsiyalariga ko'ra, riskka asoslangan ma'muriyatchilikning o'zagini soliq komplayensi piramidasi tashkil etadi. U soliq to'lovchilarning motivatsiyasiga qarab 4 guruhga bo'linishini va soliq organining ularga mos differensial ta'sir strategiyasini belgilaydi:

Soliq to'lovchilarning xulq-atvoriga mos soliq ma'muriyatchiligi strategiyalari¹⁷

Soliq to'lovchining xulq-atvori	Maqsadi va ichki motivatsiyasi	Soliq organining ta'sir strategiyasi
Ixtiyoriy rioya qiluvchi	Qonunlarga to'liq va o'z vaqtida amal qilishni xohlaydi	Xizmat ko'rsatish: Jarayonlarni soddalashtirish, raqamli xizmatlar taqdim etish
Rioya qilishga urinuvchi	Harakat qiladi, lekin qoidalar murakkabligi sabab xatoga yo'l qo'yadi	Yordam berish: Tushuntirish, maslahat berish, avtomatlashtirilgan ogohlantirishlar
Qonunni chetlab o'tishga moyil	Imkoniyat bo'lsa, soliq to'lashdan qochishga urinadi	Tahlil va manzilli ogohlantirish: Maqsadli audit va kameral nazorat choralari qo'llash
Atayin qonunni buzuvchi	Qasddan soliqdan bo'yin tovlaydi va yashirin faoliyat yuritadi	Qat'iy jazo: Soliq auditi, ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralari qo'llash

Soliq xavflarini boshqarish — soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirishga qaratilgan uzluksiz va tizimli jarayon bo'lib, u o'zaro bog'liq bir necha bosqichlarni qamrab oladi. Dastlab, bank, bojxona, davlat axborot tizimlari va uchinchi shaxslardan olinadigan ma'lumotlar Big Data texnologiyalari asosida yig'iladi va qayta ishlanadi. Keyingi bosqichda sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan risk indikatorlari yordamida shubhali operatsiyalar hamda ehtimoliy soliq xavflari aniqlanib, tahlil qilinadi. Aniqlangan xavflar asosida soliq to'lovchilar yuqori, o'rta va past xavf darajalariga ko'ra segmentlanadi. Shundan so'ng xavf darajasiga mos ravishda avtomatlashtirilgan ogohlantirish, kameral soliq tekshiruvi, sayyor soliq tekshiruvi yoki soliq auditi kabi nazorat choralari qo'llaniladi. Yakuniy bosqichda esa amalga oshirilgan nazorat tadbirlarining samaradorligi va fiskal natijalari baholanib, risk indikatorlari hamda baholash mezzillari takomillashtiriladi. Shu jihatdan, soliq xavflarini boshqarish ma'lumotlarni yig'ish, xavflarni aniqlash, baholash, nazorat qilish va natijalarni monitoring qilishga asoslangan uzluksiz siklik jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

¹⁷ Muallif tomonidan soliq komplayensi va riskka asoslangan soliq ma'muriyatchiligi nazariy yondashuvlari asosida ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasida soliq ma'muriyatchiligini tubdan isloh qilish va raqamlashtirish jarayonida riskka asoslangan yondashuvni joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ushbu yo'nalishdagi huquqiy va institutsional islohotlar O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-sonli "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi qarori bilan mustahkamlab qo'yilgan.

Soliq qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan "Soliq xavfini kompleks boshqarish" avtomatlashtirilgan axborot tizimi soliq to'lovchilarni inson omilini minimallashtirgan holda, Katta ma'lumotlar va avtomatlashtirilgan risk indikatorlari asosida xavf darajasiga ko'ra segmentatsiyalash imkonini beradi. Mazkur tizim doirasida soliq to'lovchilar uchta asosiy toifaga ajratiladi: "yashil koridor", "sariq koridor" va "qizil koridor". "Yashil koridor"ga soliq intizomi yuqori bo'lgan subyektlar kiritilib, ularga nisbatan soliq tekshiruvlari o'tkazilmaydi hamda soddalashtirilgan va qulay soliq xizmatlari taqdim etiladi. "Sariq koridor"ga hisobotlarda tafovut yoki xatoliklar aniqlangan soliq to'lovchilar kiritilib, ularga nisbatan kameral soliq tekshiruvi, avtomatlashtirilgan ogohlantirish va profilaktik choralar qo'llaniladi. "Qizil koridor" esa soliq majburiyatlarini qasddan bajarmaslik yoki yashirin iqtisodiy faoliyat yuritish xavfi yuqori bo'lgan subyektlarni qamrab olib, ularga nisbatan soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvlari kabi kuchaytirilgan nazorat choralari belgilanadi. Shu tariqa, mazkur tizim soliq nazoratini xavf darajasiga mos ravishda differensial tashkil etish va soliq ma'muriyatchiligi resurslaridan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Riskka yo'naltirilgan soliq ma'muriyatchiligi modelining amaliyotga joriy etilishi natijasida soliq nazoratining shakllari va samaradorligida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Bunda nazoratning asosiy yo'nalishi yoppasiga o'tkaziladigan tekshiruvlardan masofaviy va avtomatlashtirilgan kameral nazorat hamda soliq xavflarini barvaqt aniqlashga yo'naltirildi. Xususan, respublika bo'yicha 38,9 mingta soliq to'lovchiga nisbatan kameral soliq tekshiruvlari o'tkazilib, bu umumiy faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining 6,8 foizini tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich soliq nazoratining yoppasiga emas, balki xavf darajasidan kelib chiqib, aniq va maqsadli shaklda tashkil etilayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, statistik va avtomatlashtirilgan tahlil natijalari soliq xavflarining ayrim iqtisodiy faoliyat turlarida yuqori darajada to'planishini ko'rsatmoqda. Jumladan, ishlab chiqarish sektorida soliq tafovutlarining salmoqli qismi, umumiy ovqatlanish va savdo sohalarida naqd pul aylanmasini yashirish bilan bog'liq xavflar, qurilish sohasida esa subpudrat munosabatlari va norasmiy mehnat faoliyati bilan bog'liq xavflar nisbatan yuqori ekani aniqlangan. Mazkur natijalar riskka asoslangan yondashuv soliq nazorati resurslarini xavf darajasi yuqori bo'lgan sohalar va soliq to'lovchilarga yo'naltirish orqali nazorat samaradorligini oshirish imkonini berayotganini ko'rsatadi.

O'zbekistonda riskka asoslangan soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, inson omilini kamaytirish va nazorat jarayonlarining shaffofligini oshirish maqsadida qator institutsional va raqamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 2024-yil mart oyidagi 132-sonli qaror bilan kameral soliq tekshiruvlarini o'tkazish tartiblarining soddalashtirilishi hamda soliq organlari xodimlarining subyektiv aralashuvini cheklashga qaratilgan mexanizmlar joriy etildi. Shu bilan birga, elektron hisob-faktura, E-ijara, onlayn nazorat-kassa texnikasi va elektron tovar-transport yuk xati kabi raqamli axborot tizimlarining "Soliq xavfini boshqarish" tizimi bilan integratsiyalashuvi ta'minlanib, soliq xavflarini real vaqt rejimida aniqlash imkoniyatlari kengaytirildi. Bundan tashqari, QQS bo'yicha soliq uzilishi (Tax Gap) koeffitsiyentini aniqlash, to'lov zanjiridagi uzilishlarni avtomatik aniqlash va soliq to'lovchilarga xavf darajasini avtomatik belgilash mexanizmlarining joriy etilishi riskka asoslangan soliq nazoratining analitik imkoniyatlarini yanada kuchaytirdi.

Xulosa va takliflar

Soliq xavflarini boshqarish konsepsiyasini amaliyotga izchil joriy etish davlatning fiskal barqarorligini ta'minlash, soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish va qulay biznes muhitini shakllantirishning muhim omillaridan biridir.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, riskka asoslangan soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish bilan uyg'unlashtirish soliq to'lovchilarning ixtiyoriy soliq intizomini oshirish hamda yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, riskka asoslangan soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish uchun, avvalo, avtomatlashtirilgan risk-modellarining mezonlarini shaffoflashtirish va proaktiv profilaktika mexanizmlarini kengaytirish, xususan, soliq to'lovchining shaxsiy kabinetida uning risk guruhiga kiritilishiga sabab bo'lgan asosiy ko'rsatkichlarni aks ettirish hamda aniqlangan xatolarni jarimasiz tuzatish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, mavjud qoidaga asoslangan tizimlarni Machine Learning va sun'iy intellekt texnologiyalari bilan takomillashtirish orqali murakkab va yashirin soliq xavflarini avtomatik aniqlash imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Bundan tashqari, bojxona, bank, ko'chmas mulk va davlat xaridlari tizimlaridagi ma'lumotlarni yagona tahliliy platformaga integratsiyalash orqali idoralararo axborot almashinuvini yanada kuchaytirish soliq xavflarini kompleks baholash va nazorat resurslarini aniq yo'naltirishga xizmat qiladi.

Mazkur yo'nalishlarning izchil amalga oshirilishi soliq nazoratining samaradorligi va shaffofligini oshirish bilan birga, tadbirkorlik subyektlarining soliq tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga hamda uzoq muddatli fiskal barqarorlikni ta'minlashga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. (2019-yil 30-dekabr, O'RQ-599-sonli Qonun bilan tasdiqlangan, yangi tahriri). — *Toshkent: Adolat, 2020.*
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida (2021-yil 7-yanvar, 1-son).
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Soliq xavfini aniqlash, baholash va boshqarish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida (2024-yil 13-mart, 132-son).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining qo'llanilishini yanada takomillashtirish va soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida (2021-yil 7-sentyabr, PF-6307-son).
5. OECD (2004). Compliance Risk Management: Managing and Improving Tax Compliance. Centre for Tax Policy and Administration, Guidance Note, Paris: OECD Publishing.
6. OECD (2010). Understanding and Influencing Taxpayers' Compliance Behaviour. Forum on Tax Administration, Information Paper, Paris: OECD Publishing.
7. OECD (2021). Tax Administration 2021: Comparative Information on OECD and other Advanced and Emerging Economies. Paris: OECD Publishing.
8. IMF (2015). Current Challenges in Revenue Administration - Improving Tax Compliance. Staff Report, International Monetary Fund, Washington D.C.
9. Allingham, M. G., & Sandmo, A. (1972). Income tax evasion: A theoretical analysis. *Journal of Public Economics*, 1(3-4), 323-338.
10. Alm, J. (2019). What motivates tax compliance? *Journal of Economic Surveys*, 33(2), 353-388.
11. Vahobov, A. V., & Jo'rayev, A. S. (2020). Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. — Toshkent: Sharq.
12. G'ozibekov, D. G., & Toshmatov, Sh. A. (2018). Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishning nazariy va amaliy masalalari. Monografiya. — Toshkent: Iqtisod-Moliya.
13. Yusupov, R. A. (2022). Raqamli iqtisodiyot sharoitida riskka asoslangan soliq nazoratini rivojlantirish. «Moliya» ilmiy jurnali, (4), 45–52.
14. Elbayeva M.R. “Soliq tizimida soliq risklarini boshqarishni takomillashtirish” Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent 2023 yil.
15. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining rasmiy portali. Statistik ma'lumotlar va avtomatlashtirilgan tizimlar ko'rsatkichlari. — URL: <https://soliq.uz>
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistik agentlik rasmiy sayti. — URL: <https://stat.uz>